

O'ZBEK VA INGLIZ GEORTONIMLARIDA SINONIMLIK HODISASI

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

Farg'ona davlat universiteti,

Tilshunoslik kafedrasida tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14357445>

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek va ingliz geortonimlarida uchraydigan sinonimlik hodisasini yoritadi. Geortonimik sinonimlar bir birlari bilan paradigmatic munosabatga kirishib, sinonimik qator hosil qiladi va rasmiy hamda norasmiy nomlarni yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: geortonimik sinonimlar, sinonimik qator, rasmiy nom, norasmiy nom, ko'p komponentli, bir komponentli sinonimlar.

Geortonimlar sirasiga mansub bayram nomlari ma'lum an'analarning bardavomligini ta'minlaydi. Atoqli otlarning paradigmatic munosabatlari tilshunos olimlarning azaldan diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu bilan birga, asosiy munozaralar onomastik birliklar yuzaga chiqaradigan mazmuniy va shakliy qarama-qarshiliklar hamda ular o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik munosabatlari doirasida olib borilgan.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida **sinonimlar** (yun. synonymos – bir nomli)ga bir umumiy nomga ega bo'lgan (denotativ ma'nosi bir xil), qo'shimcha (konnotativ) ma'nosi (ekspressiv, uslubiy va boshqa munosabat kabilarni ifodalovchi xususiyatlari) bilan o'zaro farqlanadigan til birliklari – so'z, ibora va sintaktik birliklardir deb izoh berilgan¹.

Onomastikada sinonimiya muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan².

Onomastik birliklarga nisbatan A.Superanskaya maxsus onomastik sinonimiya tushunchasini kiritadi va uni “polionomiya” deb nomlashni taklif qiladi. Ushbu termin bilan olima “parallel yoki turli davrlarda mavjud bo'lgan bir xil predmetni bildiruvchi turli leksemalar”ni izohlaydi³. A.Superanskayaning fikricha, polionimlar “**номинативные дублеты**” (**nominativ dubletlar**) hisoblanib, etimologik, leksik, fonetik, morfologik jihatdan leksemali obyektlarning turli nomlarini ko'rsatadi.

Rus onomastik terminlari lug'atida “variant (onim)” termini berilgan bo'lib, turli til hodisalarida fonetik, morfologik va leksik jihatdan modifikatsiya qilingan nom yoki obyekt nazarda tutilgan. Bu esa A.Superanskayaning “**polionim**” yoki “**nominativ dublet**” tushunchasini yanada qo'llab - quvvatlaydi.

I.Kryukova yuqoridagi fikrlarga norasmiy astionimlar (shahar nomlari) asosida misollar keltiradi va uning yozishicha, bunday astionimlar ko'pincha juda uzun sinonimlar qatorini hosil

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти. – Тошкент. 7-жилд, – Б. 631.

² Азарх Ю.С. О грамматических и лингвогеографических различиях имен нарицательных и собственных с омонимичными суффиксами // Ономастика и грамматика: сб. ст. / отв. ред. Калакуцкая Л.П. – М.: Наука, 1981. – С.5–29.; Гурбанова Ф.А. О синонимии ономастических единиц в германских языках // Вестник МГОУ. Сер.: Лингвистика. 2010. № 6. – С.108–110.; Крюкова И.В. Стилистическое варьирование астионимов в современной городской лингвокультуре (по материалам словаря «Языки русских городов») // Известия Волгогр. гос. пед. ун-та. Сер.: Филол. науки. 2015. № 3. – С.134–138.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988.; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973.; Чеснокова П. Лингвокультурологические особенности чешских и русских названий праздников: дис. ... канд. филол. наук. Волгоград, 2012.

³ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С.203–304.

qiladi, dominant soʻz neytral rasmiy astionim hisoblanib, qolgan sinonim qator soʻzlari tarqalish areali, hissiy va stilistik uslub jihatidan oʻzgargan soʻzlarni aks ettiradi⁴.

Geortonimlarni tahlil qilish orqali milliy va umumxalq bayram nomlari orasida sinonim geortonimlar mavjudligi aniqlandi. Odatda, bunday bayram nomlari rasmiy va norasmiy nomlarga ega boʻladi. Rasmiy bayram nomi dominant soʻzni ifodalasa, norasmiy nomlar esa sinonimik qatorning qolgan aʼzolarini aks ettiradi. Masalan, oʻzbek tilida **Mehrjon** (sinonimik qator dominanti) – *Mehrgon, Chiriruj, Nimsarda*; ingliz tilida **Thanksgiving** (sinonimik qator dominanti) – *Turkey Day, Harvest Festival, Giving Thanks Day*.

Bayramlarning sinonim nomlari, koʻpincha, mamlakatimizning turli hududlarida bir xil bayramni nishonlashda odamlar tomonidan berilgan turli onomasiologik nomlar tufayli yuzaga keladi.

Onomastik struktura jihatidan apellyativlarga oʻxshab sinonimlarni ikki tuzilishga ajratish mumkin: **a) har xil asosli sinonimlar** (*Labor Day, Worker's Day, May day*;) va **b) bir xil asosli sinonimlar** (oʻzbek tilida *Mehrjon, Katta Mehrjon, Kichik Mehrjon*, ingliz tilida *Halloween, All Hallows' Eve, Hallowe'en*).

Shuningdek, tarkibiy tuzilmasiga koʻra, geortonimik sinonimlar: **a) bir komponentli** (*Christmas, Xmas, Yuletide, Nativity*;) va **b) koʻp komponentli** (oʻzbek tilida *Qariyalar bayrami, Umri chinorlar bayrami, Umri boqiyalar bayrami*; ingliz tilida *Valentine's Day, Saint Valentine's Day, Feast of Saint Valentine, Love Day*).

Geortonimlarda sinonimlik	1) onomastik asosiga koʻra	a) har xil asosli sinonimlar
		b) bir xil asosli sinonimlar
	2) tarkibidagi komponentlar soniga koʻra	a) bir komponentli
		b) koʻp komponentli

Geortonimlarda sinonimlik hodisasi

“Sinonimiya” atamasi onomastik lugʻat bilan shugʻullanuvchi onomatologlar tomonidan munozaralarga sabab boʻlmasa-da, lekin “antonimiya” tushunchasi borasida turli qarashlar mavjud.

A. Superanskaya onomastik birliklarning har biri oʻziga xos ekanligini taʼkidlaydi va ularning konsepsiyalashuv jarayonidagi zaiflashgan nominativ xarakteri tufayli antonimlar deb qarashni rad etadi⁵.

References:

1. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С.305.
2. М.Богова. Акционимы – названия праздников и фестивалей. Иностранные языки: инновации, перспективы исследования и преподавания [Электронный ресурс] :

⁴ Крюкова И.В. Стилистическое варьирование астионимов в современной городской лингвокультуре (по материалам словаря «Языки русских городов») // Известия Волгогр. гос. пед. ун-та. Сер.: Филол. науки. 2015. № 3. – С.137.

⁵ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С.305.

материалы III Междунар. науч.-практ. конф., Респ. Беларусь. – Минск, 2020. – С.559-562.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: «Ўзбекистон нашриёти», 2020. – Б.652.